

Ўрта муддат 1 ноябрда экилганда дон ҳосилдорлиги экиш меъёрларининг ортиб боришига мос равишда очик майдонга СЗУ-3,6 сеялкасида экилганда 66,6-69,1 ц/га, ғўза қатор ораларига СЗУ-3,6 сеялкасида экилганда 59-64,1 ц/га кузатилди. Энг юқори ҳосилдорлик 6 млн.дона унувчан уруғ ҳисобида экилганда очик майдонда 69,1 ц/га, ғўза қатор орасида 64,1 ц/га ни ташкил этди.

Кеч муддат 20 ноябрда экилганда дон ҳосилдорлиги экиш меъёрларининг ортиб боришига мос равишда очик майдонга СЗУ-3,6 сеялкасида экилганда 57-60,4 ц/га, ғўза қатор ораларига СЗУ-3,6 сеялкасида экилганда эса 40,1-43,9 ц/гаошиб бориши кузатилди. Энг юқори ҳосилдорлик 6 млн.дона унувчан уруғ ҳисобида экилганда очик майдонда 60,4 ц/га, ғўза қатор орасида 43,9 ц/га ни ташкил этди.

Бунёдкор навидан эрта ўрта ва кеч муддатларда очик майдонга СЗУ-3,6 сеялкасида 6 млн.дона унувчан уруғ ҳисобида экилганда энг юқори ҳосил олиш мумкинлиги аниқланди.

Яксарт нави эрта муддат 10 октябрда экилганда дон ҳосилдорлиги очик майдонга СЗУ-3,6 сеялкасида экилганда 68,1-74,6 ц/га, ғўза қатор ораларига экилганда эса 64,6-66,1 ц/гани ташкил қилди. Энг юқори ҳосилдорлик 5,5 млн.дона унувчан уруғ ҳисобида СЗУ-3,6 сеялкасида экилганда очик майдонда 74,9 ц/га, ғўза қатор орасида 6 млн.дона унувчан уруғ ҳисобида экилганда эса 66,1 ц/га кузатилди.

Ўрта муддат 1 ноябрда экилганда дон ҳосилдорлиги экиш меъёрларининг ортиб боришига мос равишда очик майдонга СЗУ-3,6 сеялкасида экилганда 65,1-71 ц/га, ғўза қатор ораларига СЗУ-3,6 сеялкасида экилганда эса 58,3-63,8 ц/га кузатилди. Энг юқори ҳосилдорлик 6 млн.дона унувчан уруғ ҳисобида СЗУ-3,6 сеялкасида экилганда очик майдонда 71 ц/га, ғўза қатор орасида 63,8 ц/га ни ташкил этди.

Кеч муддат 20 ноябрда экилганда дон ҳосилдорлиги экиш меъёрларининг ортиб боришига мос равишда очик майдонга СЗУ-3,6 сеялкасида экилганда 53,2-61,1 ц/га, ғўза қатор ораларига СЗУ-3,6 сеялкасида экилганда эса 42-44,9 ц/гаошиб бориши кузатилди. Энг юқори ҳосилдорлик 6 млн.дона унувчан уруғ ҳисобида 61, ц/га, ғўза қатор орасида эса 44,9 ц/га ни ташкил этди.

Яксарт навидан эрта муддатда очик майдонга СЗУ-3,6 сеялкасида 5,5 млн.дона унувчан уруғ ҳисобида экилганда, ўрта ва кеч муддатларда 6 млн.дона унувчан уруғ ҳисобида экилганда энг юқори ҳосил олиш мумкинлиги аниқланди.

Хулоса қилиб айтганда ҳар уччала навда ҳам очик майдон ва ғўза қатор ораларига экилган вариантда экиш муддати 10 октябрда гектарига 6 млн.дона унувчан уруғ ҳисобида экилган вариантда ҳосилдорлик юқори бўлган, экиш муддати кечикиши билан ҳосилдорлик ҳам камайиб борган.

PAXTACHILIKDA ORGANIK VA MINERAL O'G'ITLARDAN BIRGALIKDA FOYDALANISHNING AHAMIYATI

F.Oltiboyeva – magistratura talabasi, Sh.Berdiqulov – dotsent

Respublikamizning qishloq xo'jaligida paxtachilik yetakchi tarmoq bo'lib, har yili 1.3-1.35mln gektar maydonga chigit ekilib parvarish qilinmoqda. O'tgan 2015-yilda 3 mln 350 ming tonna paxta yetishtirilib, o'rtacha hosildorlik 25-26 sentnerni tashkil etdi.

Hukumatimiz barcha choralar bilan hosildorlikni oshirishga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Jumladan, urug'lik materiallari, o'g'it, sug'orish suvlari, kimyoviy va biologik himoyalash vositalari, yonilg'i va boshqa neft mahsulotlari, texnika vositalari va ularning ehtiyot qismlari hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar, texnologiyalar va qo'llanmalar bilan uzluksiz ta'minlab kelmoqda. Shunday bo'lsada, sohada yuqori hosildorlikka erishilmayapti. Bunga asosiy sabab, tuproqda oziqa moddalar zahirasining kamayganligi va unumdorlikning pasayib borayotganligidir. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida qisqa rotatsiyali g'alla-g'o'za almashlab ekish tizimi joriy etilgan, bu tizim tuproq unumdorligini oshib borishini ta'minlay olmayapti. Natijada tuproqda organik moddalarning kamayishi, mikrobiologik jarayonlarning susayishi tufayli gumus va boshqa moddalarning miqdori yil-

dan-yilga kamayib bormoqda. A.Iminov, B. Xoliqovlar (2015) o'z ilmiy ishlarida g'o'za va g'alla ekinlari tuproqdagi oziq moddalarni juda ko'p miqdorda o'zlashtirish xususiyatiga ega bo'lib, g'o'zani g'alla bilan uzoq yillar davomida uzluksiz ekish unumdorlikka salbiy ta'sir etib, tuproq holatini yamonlashtiradi. Bunday salbiy xolatlarni oldini olishda imkon qadar don-dukkakli va sid-erat ekinlardan hamda organik o'g'itlardan to'g'ri foydalanish zarurligini ta'kidlaydi.

Respublikamizda jamg'ariladigan go'ngning miqdori juda kamligi sababli, mavjud go'ng zahiralardan samarali foydalanishga erishish paxta hosildorligini oshirishdagi qo'shimcha rezervlardan biri hisoblanadi.

Agrotexnikaning boshqa choralari qatori organik va mineral o'g'itlar alohida-alohida qo'llanilganda, o'simliklarning turli xil oziqa elementlariga nisbatan talabi maksimal darajada qondirilmaydi. Masalan, bunda mineral o'g'itlar evaziga g'o'zaning azot, fosfor va kaliyga bo'lgan talabi ortig'i bilan qondirilsa uning organik moddalarga bo'lgan talabi mutloq qondirilmaydi. Aksincha, maxalliy o'g'it ishlatish evaziga o'simliklarning organik moddalarga bo'lgan talabi qondirilsa, ammo bu o'g'itlarning tarkibida mavjud bo'lgan azot, fosfor va kaliy o'simlikning ana shu xildagi moddalarga bo'lgan talabini to'la ravishda qondira olmaydi. Shu tufayli, ba'zi xo'jaliklarda mineral o'g'itlarni yuqori me'yorlarda ishlatish hosildorlikni oshira olmayapti. Mineral o'g'itlarni organik o'g'itlar bilan birga ishlatayotgan xo'jaliklarda paxta hosildorligi gektar hisobiga 40-45 sentnerdan oshib ketayotganining sababi ham ana shunda.

O'zPITI (2008)da olib borilgan ko'p yillik dala tajribalarda mineral o'g'itlar va go'ng alohida-alohida ishlatilganda olingan qo'shimcha paxta hosili gektar hisobiga 8,2 sentnerni tashkil qilgan. Ular birgalikda qo'llanilganda esa olingan qo'shimcha paxta hosili gektariga 12,2 sentnerdan oshib ketgan.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, paxtachilikda mineral o'g'itlarni organik o'g'itlar bilan birga ishlatish maqsadga muvofiq deb hisoblash mumkin. Paxtachilikda turli xil me'yorlarda ishlatiladigan mineral o'g'itlarning samaradorligiga gungning ko'rsatadigan ta'sirini aniqlash maqsadida O'zPITIning Samarqand filialida uzoq yillar davomida bir qator tadqiqot ishlari olib borildi. Bunda mineral o'g'itlarni turli me'yorlari go'ngli va go'ngsiz fonlarda sinab ko'rildi. Tajriba uchastkasida go'ng kuzgi shudgorlash oldidan gektariga 20 tonna hisobida berilib, fon tashkil etildi. Tajriba yillarida tuproq tahlillari va g'o'zaning o'sish va rivojlanishi kuzatib borildi. Go'ng mineral o'g'itlar bilan birga ishlatilgan variantlarda tuproqning kimyoviy, fizikaviy va biologik xossalari birmuncha yaxshilanib, g'o'zaning o'sishi va rivojlanishi sezilarli tarzda tezlashdi. Lekin, faqat mineral o'g'itlarning o'zi katta me'yorlarda ishlatilgan variantlarda g'o'zalarning o'sishi va rivojlanishi yaxshilangan bo'lsa ham hosildorligi, mineral va organik o'g'itlar birgalikda ishlatilgan maydonlardagiga nisbatan, biroz past bo'ldi. Buning sababi shundaki, mineral o'g'itlar go'ng bilan birga ishlatilganda o'simlik tanasida azot sof holda to'planmasdan tezda oqsil moddalar ko'rinishiga o'tib ketadi. Shu tufayli o'simlikni o'sishi va rivojlanishi, hosil to'plashi tezlashadi. Natijada paxtadan mo'l hosil yetishtirish uchun qilay sharoit vujudga keladi.

Mineral o'g'itlar samaradorligiga organik o'g'it (go'ng) ning ta'siri

№	Variantlar	Paxta hosili ga/s hisobda		
		Go'ngsiz fonda	Go'ngda berilgan fon- da(20t/ga)	Qo'shimcha hosil
1	O'g'itsiz	18.6	26.3	7.7
2	N200 P150 K100	36.8	44.2	8.0
3	N300 P210 K150	38.8	44.6	5.8

Jadval ma'lumotlari tahlilidan ma'lum bo'lmoqdaki, go'ngsiz fonda mineral o'g'itlarni katta me'yorlarda qo'llash paxta hosilini keskin oshishini ta'minlamas ekan. Tajribada eng maqbul variant 2-variant bo'lib gektaridan olingan yangi hosil 44.2 sentnerni, qo'shimcha hosil esa 8.0 sentnerni tshkiletdi.

Xulosa. Paxtachilikda mineral o'g'itlardan foydalanish samaradorligini oshirish ushun ularni organik o'g'itlar fonida qo'llash zarur. Organik o'g'itlar mineral o'g'itlardan foydalanish sa-

marasini oshirish bilan birga tuproqlarning fizikaviy, kimyoviy va mikrobiologik xosalarini tubdan yaxshilaydi. Chirindi zahirasi kamaygan tuproqlar sharoitida kuzgi shudgorlash oldidan gektariga 20 tonnadan go'ngni navbatlab solishni tavsiya etamiz.

СУҒОРИЛАДИГАН ЕРЛАРДА ҚАТТИҚ БУҒДОЙ ЕТИШТИРИШ АГРОТЕХНОЛОГИЯСИ

Д.Асламов, З.Бобоев - талабалар, П.Х.Бобомирзаев – доцент

Аннотация - мақолада суғориладиган ерларида олиб борилган дала тажрибалари натижалари агротехнологик (экиш муддати ва меъёри, суғориш режими, азотли ўғит меъёрлари) омилларнинг қаттиқ буғдойни ўсиши, ривожланиши, дон ҳосили ва сифатига таъсири баён этилган.

Калит сўзлар: Қаттиқ буғдой, суғориладиган ерлар, навлар, экиш муддати, экиш меъёри, суғориш режими, нам тўплайдиган суғориш, азотли ўғит меъёри, дон ҳосили ва сифати, дондаги клейковина ва оксил миқдори.

Мавзунинг долзарблиги. Буғдой етиштиришни кўпайтириш ва сифатини яхшилаш мамлакатимиз кишлоқ хўжалигидаги энг долзарб муаммолардан биридир. Бу муаммони ҳал этишда навлар ва уларнинг илмий асосланган технологиясини ишлаб чиқиш муҳим аҳамиятга эга.

Мамлакатимизда ривожланиб бораётган макарон-кондитер саноатининг муҳим хомашёси бўлган қаттиқ буғдой донига бўлган талаби табора ошмоқда, аммо республикамызда унинг экилаётган майдони жуда кам ва донига бўлган талабни қондира олмайди. Ваҳоланки, уни етарли миқдорда етиштиришнинг илмий ва амалий имкониятлари мавжуд.

Республикамызнинг давлат нав синаш участкалари, станциялари ва кўпгина фермер хўжаликларида ўтказилган тажрибалар қаттиқ буғдой ҳам суғориладиган ерларда илмий асосланган технологияси бўйича ўстирилганда ҳосилдорлик бўйича юмшоқ буғдойдан қолишмаслигини гектардан 55-65 ц кам бўлмаган қимматбаҳо дон олишини кўрсатди.

Республикамыз суғориладиган ерларида экиш учун қаттиқ буғдойнинг Крупинка, Истиклол, Макуз-3, Александровка, Леукурум-21, Карлик-85, Неодур ва Тетрадур навлари давлат реестрига киритилган. Бу навларнинг ҳаммаси қурғоқчиликка, касалликларга чидамлилиги юмшоқ буғдойникидан юкори, пишганда донлари тўкилиб кетмайди.

Тадқиқот объекти ва услубияти. Дала тажрибаларини Қашқадарё вилоятининг Чирокчи туманидаги «Чиял» ММТП худудидаги «Хасан раис» ва «Алла бобо» фермер хўжаликларининг суғориладиган типик бўз тупроқлари шароитида ўтказдик. Тажрибалар қаттиқ буғдойнинг суғориладиган ерларда Крупинка, Макуз-3, Александровка, Карлик-85, Бахт ва Истиклол навларида олиб борилди. Тадқиқотлар умумқабул қилинган услублар асосида ўтказилди.

Суғориладиган ерлар шароитида экиш муддати ва меъёри билан боғлиқ тажрибалардан ташқари барча тажрибаларда экиш октябр ойининг 21 кунда гектарига 4,0 млн унувчан уруғ меъёрида экилди. Экиш тажриба схемасига асосан олиб борилди. Дала тажрибалари 4 қайтариқли ҳисобга олинадиган пайкалларнинг катталиги 50 м² га тенг булиб 2 ярусли қилиб жойлаштирилди. Ўтмишдош экин ғўза. Тажрибаларда гектарига Р₁₅₀ К₇₀ ва N₂₁₀ кг дан (азотли ўғитлар экишдан олдин 30 кг, қолган меъёри эрта баҳорда ва найчалаш фазаларида) солинди. Экишдан олдин нам тўплаш мақсадида гектарига 1200 м³ сув берилди ва 3-5 марта атмосфера ёғинлари ҳисобга олиниб, ўсув даврида суғоришлар ўтказилди.

Буғдой навлари октябр ойининг 1,11,21 кунлари ва 1,11 ноябрда гектарига 4.0 млн унувчан уруғ ҳисобида экилди.

Тажрибада ўсимлик парвариши мазкур минтақа учун қабул қилинган технологик жараёнлар асосида бажарилди. Тажрибалар ва ундаги кузатишлар, ҳисоб-китоблар ва таҳлиллар қабул қилинган услублар асосида ўтказилди. Клейковина миқдори ГОСТ 13586-1-